

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIY RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Xo'janova Gulshoda Otamurodovna¹, Meyliyeva Maftuna Safar qizi²

¹ Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, i,f,f.d., PhD

² Qarshi davlat texnika universiteti talabasi

¹ E-mail: gulshodaxojanova@gmail.com

² E-mail: maftunameyliyeveva76@gmail.com

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.323

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy resurslardan oqilona foydalanishning nazariy-metodologik asoslari hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tadqiq etilgan. Tabiiy, mehnat va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish orqali hududlarning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, suv resurslarini tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlashning iqtisodiy natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, hududiy resurslar, iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, yashil o'sish, barqaror rivojlanish.

PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPROVING ECONOMIC EFFICIENCY THROUGH THE RATIONAL USE OF REGIONAL RESOURCES IN THE CONTEXT OF A GREEN ECONOMY

Xhojanova Gulshoda Otamurodovna¹, Meyliyeva Maftuna Safar qizi²

¹ PhD in Economics, Karshi State Technical University

² Student, Karshi State Technical University

¹ E-mail: gulshodaxojanova@gmail.com

² E-mail: maftunameyliyeveva76@gmail.com

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of the rational use of regional resources in the context of a green economy and its impact on economic efficiency. The opportunities for increasing regional competitiveness through the effective utilization of natural, labor, and economic resources are analyzed. Particular attention is paid to renewable energy development, energy efficiency improvement, water conservation, and environmental sustainability.

Keywords: green economy, regional resources, economic efficiency, environmental sustainability, renewable energy, energy efficiency, green growth, sustainable development.

Kirish

XXI asrda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan global ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda energiya resurslariga bo'lgan talabning ortib borishi iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro energetika agentligi (IEA) va BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalasi bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda.

An'anaviy iqtisodiy rivojlanish modeli ko'p hollarda tabiiy resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi, ekologik muvozanatning buzilishi va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Natijada atmosfera havosining ifloslanishi, yer resurslarining degradatsiyasi, suv tanqisligi va biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Mazkur holat iqtisodiy taraqqiyotning ekologik jihatdan barqaror shakllarini izlashni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy modeli sifatida shakllanib, iqtisodiy o'sishni tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va aholi farovonligini oshirish bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan. UNEP ta'rifiga ko'ra, yashil iqtisodiyot inson farovonligini va ijtimoiy tenglikni oshirish bilan bir qatorda ekologik xavf va resurslar tanqisligini kamaytirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy tizim hisoblanadi.

So'nggi yillarda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy va Birlashgan Arab Amirliklari yashil iqtisodiyot siyosatini iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan.

O'zbekistonda ham ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori bilan esa "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash dasturi" tasdiqlangan. Ushbu hujjatlar energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, suv resurslarini tejash hamda iqtisodiyotning ekologik barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Mamlakatda quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish hamda yashil transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar hududiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy resurslardan oqilona foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ekologik muammolarning kuchayishi natijasida shakllangan yangi iqtisodiy paradigma hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning nazariy asoslari ekologik iqtisodiyot, barqaror rivojlanish nazariyasi hamda tabiiy kapital konsepsiyasiga tayanadi.

Xalqaro miqyosda yashil iqtisodiyotning nazariy va amaliy jihatlarini UNEP, World Bank, OECD va International Energy Agency tomonidan keng tadqiq qilingan. UNEP mutaxassislari yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar.

Jahon banki ekspertlari yashil iqtisodiyotni resurslardan samarali foydalanish, kam uglerodli rivojlanish va ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlovchi iqtisodiy model sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli samaradorligi tabiiy kapitalning saqlanishi bilan bevosita bog'liqdir.

Kanadalik iqtisodchi Peter Victor iqtisodiy o'sishning cheksiz davom etishi tabiiy resurslarning chegaralanganligi sababli mumkin emasligini asoslab bergan. Olimning ta'kidlashicha, iqtisodiy taraqqiyot tabiiy kapitalning qisqarishi hisobiga emas, balki resurslardan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga ta'minlanishi lozim.

Mahalliy olimlardan A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiyev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning shakllanishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari o'rganilgan. Tadqiqotlarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida energiya samaradorligini oshirish va yashil texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati asoslab berilgan. So'nggi yillarda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga oid ilmiy tadqiqotlar sonining ortishi ushbu yo'nalishning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida iqtisodiy tadqiqotlarning zamonaviy usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish usuli, ilmiy abstraksiya va ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bugungi kunda iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtiruvchi rivojlanish modeli sifatida xalqaro miqyosda e'tirof

etilmoqda. Mazkur modelning asosiy maqsadi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik xavflarni kamaytirish hamda aholi farovonligini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyotga o'tish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrda PQ–436-son qarori bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash dasturi” mamlakatda ekologik va iqtisodiy barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini yaratdi.

Mazkur dasturda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini kengaytirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash hamda ko'kalamzorlashtirish ishlarini rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Shu bilan birga, O'zbekiston 2021-yilda BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yil darajasiga nisbatan 35 foizga qisqartirish majburiyatini olgan. Bu esa yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

1-jadval


Yashil iqtisodiyot yo'nalishlari va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar

Yo'nalish	Amalga oshirilayotgan ishlar	Maqsad
Qayta tiklantiruvchi energiya	Quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi	Energiya balansida yashil energiya ulushini oshirish
Energiya samaradorligi	Sanoat va binolarda energiya tejovchi texnologiyalar	Energiya sarfini kamaytirish
Suv resurslari	Tomchilatib sug'orish, suv tejovchi texnologiyalar	Suv tanqisligini kamaytirish
Chiqindilarni boshqarish	Qayta ishlash zavodlari, chiqindi saralash tizimi	Ekologik ifloslanishni kamaytirish
Transport	Elektromobil va ekologik toza transport	Karbon emissiyasini kamaytirish
Ko'kalamzorlashtirish	Daraxt ekish, yashil hududlarni kengaytirish	Havoni tozalash va ekologik muvozanatlar
Iqlim siyosati	Metan va CO ₂ emissiyasini kamaytirish	Global isishni oldini olish

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab oladi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirish iqtisodiy samaradorlikka eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda elektr energiyasi ishlab chiqarishda quyosh va shamol energetikasining ulushi ortib borayotgani energiya xavfsizligini ta'minlash bilan birga, uglerod emissiyalarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarning joriy etilishi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga imkon bermoqda.

Chiqindilarni qayta ishlash tizimining rivojlanishi esa ikkilamchi xomashyo bozorini shakllantirish va resurslardan takroriy foydalanishni kengaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.



1-rasm. Yashil iqtisodiyot yo'nalishlari bo'yicha taqsimot (2024-yil)

Diagramma natijalari yashil iqtisodiyot rivojlanishida energetika tarmog'i yetakchi o'rinni egallayotganligini ko'rsatadi. Eng yuqori ulush qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (30 foiz) to'g'ri keladi. Bu holat dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda energiya tizimini ekologik toza manbalarga o'tkazish ustuvor yo'nalish ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi o'rinda energiya samaradorligi (22 foiz) turib, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Suv resurslari (18 foiz) va chiqindilarni boshqarish (15 foiz) yo'nalishlari ham ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda resurslardan oqilona foydalanishning muhim omillari hisoblanadi.

Transport sohasining 10 foizlik ulushi elektromobillar va ekologik transport vositalarining rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Ko'kalamzorlashtirish va iqlim siyosati yo'nalishlari nisbatan past ulushga ega bo'lsa-da, ular ekologik muvozanatni saqlash va atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, diagramma yashil iqtisodiyotda asosiy e'tibor energiya va resurs tejamkorligi yo'nalishlariga qaratilganligini ko'rsatadi.

2-jadval

Jahon Bankining “yashil o‘shish”dagi samaradorlik ko‘rsatkichlar

Tarmoq	Vosita	Ko‘rsatkich
Atrof-muhit	Atrof-muhit holatini yaxshilash	–CO ₂ emissiyasini ajratmasini) kamaytirish; –Rivojlanishdan (sanoat ta’ siridan) muhofaza qilingan tabiiy hududlar; –Havo va suv resurslarining sifati
Iqtisodiyot	Ishlab chiqarish omillari (fizik, inson va tabiiy kapital)ning ortishi.	Marjinal mahsulot – ishlab chiqarish omilining bir birlikka ortishi natijasida ishlab chiqarish hajmining o‘shishi (ekotizim xizmatlari qiymati va tiklanadigan omillarga bog‘liq holda).
	Bozor muvaffaqiyatsizlik-larini bartaraf etish, innovatsiyalarni rivojlantirish va bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish.	–Yashil texnologiyalar samaradorligi ko‘rsatkichlari; –Yashil texnologiyalar bilan ta’ minlanish darajasi.
Ijtimoiy	Tabiiy ofatlar ,oziq-ovqat mahsulotlari narxlari beqarorligi va iqtisodiy inqiroz holatlarini moslashuvchanlikni oshirish. Yaratilgan ish o‘rinlari va kambag‘allikni kamaytirish	–Tabiiy ofatlardan ko‘rilgan zararlar (pul birligida); –Tabiiy ofatlardan zara ko‘rganlar soni (kishi); –Narxlar beqarorligidan zara ko‘rganlar soni (kish). –Yaratilgan “yashil” ish o‘rinlari va ularning kambag‘allik darajasiga ta’siri;

Jahon banki tomonidan taklif etilgan ko‘rsatkichlar yashil iqtisodiyot samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur indikatorlar iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarni bir vaqtning o‘zida hisobga olishi bilan ahamiyatlidir. Atrof-muhit nuqtai nazaridan qaraganda, karbon emissiyalarining kamayishi va ekologik holatning yaxshilanishi asosiy mezon sifatida qaraladi. Iqtisodiy blokda esa resurslardan foydalanish samaradorligi va ishlab chiqarish unumdorligi muhim o‘rin tutadi.

Ijtimoiy sohada yangi “yashil” ish o‘rinlarining yaratilishi, kambag‘allik darajasining pasayishi va aholining ekologik farovonligi asosiy indikatorlar hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o‘tish nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, investitsiyalar oqimini ko‘paytirish va aholi turmush sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Shunday qilib, hududiy resurslardan oqilona foydalanish yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadlariga erishishning muhim sharti bo‘lib, iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi.

Tahlillar natijasida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi energiya xavfsizligini mustahkamlash bilan birga energiya ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Quyosh va shamol energetikasi loyihalarining kengayishi natijasida uglerod

emissiyalarini qisqartirish va energiya balansida yashil energiya ulushini oshirish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda.

Ikkinchidan, energiya samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar sanoat korxonalari va xizmat ko'rsatish sohasida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirib, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, suv resurslarini boshqarishda tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish va raqamli monitoring texnologiyalarining joriy etilishi suv iste'molini sezilarli darajada qisqartirish imkonini bermoqda.

To'rtinchidan, chiqindilarni qayta ishlash va ikkilamchi resurslardan foydalanish tizimining rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan takroriy foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, "aylanma iqtisodiyot" tamoyillarining shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Beshinchidan, yashil iqtisodiyotga oid davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ekologik va iqtisodiy jihatdan eng maqbul modellaridan biri hisoblanadi. Mazkur model iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va aholi turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Hududiy resurslardan samarali foydalanish yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, suv resurslarini boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik transport tizimlarini rivojlantirish hududlarning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynashi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat dasturlari mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, ekologik muammolarni kamaytirish va xalqaro ekologik majburiyatlarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot tamoyillarini hududiy rivojlanish siyosatiga integratsiyalash orqali investitsion faollikni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash mumkinligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy taraqqiyotning uzoq muddatli strategik yo'nalishi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois yashil iqtisodiyot tamoyillarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida keng qo'llash mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil iqtisodiyot'ga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". - Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida 'yashil iqtisodiyot'ga o'tish va yashil o'sishni ta'minlash dasturi to'g'risida". - Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. - Toshkent, 2023.
4. World Bank. Green Growth Indicators and Sustainable Development Reports. Washington D.C., 2022.
5. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environment Outlook Report. Nairobi, 2023
6. International Energy Agency (IEA). Energy Efficiency 2023 Report. Paris, 2023.
7. United Nations. Sustainable Development Goals Report 2023. New York, 2023
8. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumotlari. – Toshkent, 2024.
9. Victor, P. A. (2008). Managing without Growth: Slower by Design, Not Disaster. Edward Elgar Publishing, Cheltenham. – P. 112.
10. Vaxabov A.V. Sh.X.Xajibakiyev va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: Darslik./.- Toshkent.: "Universitet", 2020.-262 b.
11. Xo'janova G. Qashqadaryo viloyatida tabiiy resurslardan foydalanish istiqbollari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – T. 1. – №. 11-12.
12. Хожанова Г. О. Особенности использования природных ресурсов //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 9. – №. 2. – С. 105-107.
13. <https://lex.uz/acts/-6303230>
14. <https://stat.uz/uz /rasmiy-statistika/ecology-2>